



ZAMONAVIY TA'LIM SIFATINI ANIQLOVCHI KOMPETENSIYALARING NAZARIY ASOSLARI

Ataboyeva Muyassar Baxromovna

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali, Ijtimoiy fanlar va xorijiy
tillar kafedrasi o'qituvchisi*

Dolzarbli; Iqtisodiyotdagi globallashuv jarayonlari, axborot jamiyatining shakllanishi, respublikamiz ta'lism tizimlarining integrasiyasi tizim oldiga yanada muhim vazifalarni, jahon ta'lism tizimi oldida o'z mavqeiga ega bo'lishni qo'yemoqda. Bu o'z navbatida kompetensiyali yondashuvga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Rossiya ta'lmini modernizisiya qilish konsepsiyasida ta'kidlanganidek shakllanib borayotgan jamiyatga javobgarlikni his etadigan, muammolarni mustaqil yecha oladigan, ularning oqibatini tahlil qila oladigan, hamkorlikka qodir, mobilligi bilan farqlanuvchi, konstruktiv, mamlakat taqdiri uchun o'z kuchini ayamaydigan zamonaviy ma'lumotga ega, axloqiy, tashabbuskor insonlar kerak [108].

Mamlakatimiz ta'lism tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lism sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri ingliz tili o'qituvchilarining zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi hamda ularning turli darajadagi kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini ilmiy tadqiq qilish hisoblanadi. Chunki, ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash vazifalari avvalo ta'lism tizimida amalga oshiriladi. Bu o'z o'rnida ta'lism tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lism tizimi respublikamizning kelajakdagagi intellektual imkoniyatlarini va



shakllanishini belgilab beruvchi bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'yaydi [109].

Bugun respublikamiz ta'lim tizimida innovasion texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va o'qituvchilarning o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'lik.

Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirish strategiyasini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin:

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilar e'tiborini muammoni yechishda foydalanadigan metodning keng qamrovligiga qaratish;

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda klasterli kompetensiyalarini shakllantirishni dars maqsadi sifatida emas, balki darsda qo'yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo'l, imkoniyat;

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilar o'zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g'oyalar ijodkorlik darslarining asosiy mahsuli hamda axborotlarni yig'ish, tahlil va talqin qilishni kompetensiyalarini shakllantirishning muhim jihat sifatida qaralishi.

S.T.Turg'unov [110] fikricha, xalqaro pedagogik amaliyotda o'qituvchilarda kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish ham nazariy ham amaliy jihatdan ilmiy asoslash muhim hisoblanadi. Bu davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining shakllanish darjasini bilan o'qituvchilarda ushbu



kompetensiyalarni shakllantirish jarayonlari sub'yeqtlarining shaxsiy xislatlari va kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish darajasi va ilmiy-metodik ta'minot o'rtaqidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish bilan bog'likdir.

O'qituvchilarda klasterli kompetensiyalarni shakllantirish jarayonlarini tashkil etishda ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy o'qitish vositalari, eng samarali hisoblangan metodika va metodlar, kompetensiyali yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish zarur hisoblanadi.

M.Mayburov [111] ta'kidlashicha, kompetensiyali yondashuvga asoslangan ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u kishini hayotga, jumladan mehnatga (kasbga) tayyorlashni asosiy maqsad qilib olgan tizimlashgan, tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni berish orqali uni muayyan mahorat, qobiliyat darjasiga yetkazish vositasidir. Shuning uchun ham barqaror shakllanish uchun ta'lim aynan tizimlashgan ta'lim bosqichlarida kishini muayyan bir kompetentlik darjasiga yetkazish vositasi deyish mumkin. Aksariyat shakllangan mamlakatlarda kollej, bakalavr, magistr, fan doktorini diplomi yoki uning kasbiy klassifikatordagagi shifriga qarab emas, balki kompetentlik darjasiga qarab ishga oladi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvga alohida e'tiborni qaratish bugungi kunda dolzarb bo'lib, u ingliz tili fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda, yangi axborotlarni talabalarga tushunarli holda yetkazishlarida, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishlarida muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimiga ushbu yondashuvni joriy etish, kompetensiyalarni tanlash, ularni bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida shakllantirish, kompetentligini baholash kabi masalalar tadqiqot ishimizning maqsadini tashkil qiladi. Ushbu yondashuvga asoslangan davlat ta'limi standartlarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish muhim hisoblanadi. Ta'lim mazmunini boyitishda amaldagi ta'lim standarti



hamda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi yondashuvlar tizimlashtirildi. Ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali kompetentli shaxsni tarbiyalash, o'qituvchilarda klasterli fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim sifatini belgilaydi.

O'quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni kiritish bo'lajak ingliz tili ta'limi mazmunini o'zgartirishda, o'quv jarayonini amalga oshirishda hamda ingliz tili o'qituvchilarining amaliy ishlarida jiddiy o'zgarishlarni talab etadi. Kompetensiyali yondashuv: Nimaga o'qitish kerak?, tizimli faoliyatli yondashuv esa, Qanday o'qitish kerak? savoliga javobdir.

Kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Bu esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida shakllantiriladigan klasterli kompetensiyalarni tanlash hamda ularni shakllantirish metodikasi bilan bog'liq. Respublikamizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti talablarini ishlash jarayoni fanlarga oid kompetensiyalarni tanlash, mos holda ta'lim mazmunini takomillashtirgan holda kompetensiyalarni shakllantirishni dars jarayoniga kiritish uchun ularni faoliyat shaklida berishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar o'quv rejadagi barcha fanlar mazmuniga singdiriladi va pedagogik faoliyatda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida klasterli kompetensiyalar asosida shakllantiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining kasbiy komptentligini oshirish .Ta'lim samaradorligiga erishishda ta'lim klasteri usullarini qo'llash ushbu soxa xodimlari faoliyatini yuksaltirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish bugungi kun ta'lim tizimini yuksak saloxiyati, malakali pedagog kadrlarni yetkazib berish masalasi ta'lim klasterini to'g'ri yo'lga qo'yish kerakligini taqozo etmoqda.



Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan jiddiy isloxitlar mazkur tizinini tubdan takomillashtirish, oliv ma'lumotli mutaxasislar taylorlashning maqsadli yo'naliшlarini aniqlash ayniqsa pedagog kadrlarning kasbiy malakalarini va bilim saviyasini uzlusiz yuksaltirishni taqazo etmoqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustivor vazifalari to'g'risidagi oliv majlisga murojatnomasida xam dolzarb vazifalar va masalar qatorida ilm fan ta'lim va ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy xayot munosabatlariga aloxida urg'u berilganligi bejiz emas. Madomiki, ta'lim tizimining markazida inson kapitali uni to'g'ri taqsimlash undan samarali foydalanish va maqsadli yo'naltirish turar ekan bunda barcha ta'lim turlari tizimini jamiyatningbarcha manfaatdor tomonlari ta'lim jarayoning barcha sub'yektlari bilan yaxlitlikda bugungi kun talablari asosan tashkil etish xamda ta'limning to'liq uzlusizligiga erishish oldimizda turgan muxim vazifalardandir.

Maqsad va vazifalari. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'zini o'zi rivojlantirish komptentsiyasini shakllantirish ta'limni integratsiyalashda klasterli yondashuvni raqobatbardoshliligini oshirish.

Qo'langan usullar. Tadqiqotning nazariy (taxlliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rovlар, suxbat, so'rov nomas, kuzatish) prognostic (ekspert baxolash, mustaqil baxolarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, grafik tasvirlash) kabi metodlardan foydalanilgan.

Olingan natijalar. Nazariy va pedagogik vaziyatni o'zganishda talabalarning umumiyligi ta'lim tajribasini rivojlantirishni ta'minlash, ta'lim va bilim kompententligini shakllantirish bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan xamda ingliz tili fani boyicha o'quv uslubiy majmuasi takomillashtirilgan. Talabalarga xorijiy til o'rgatish talablari daraja ko'rsatkichini aniqlastirish.

Xulosa. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni taqdim etishga asos bo'ldi.

1.Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

2. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini xorij tajribalariga uyg'unlashtirish asosida takomillashtirildi.

3. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari, mavjud holati, dolzarb muammolari o'rganildi hamda ularni bartaraf etish yo'lidagi vazifalarni belgilandi.

4.Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalari mohiyati va tuzilishini ochib berish asosida ularning ushbu kompetensiyalarni shakllantirish modeli (kompetensiyaviy yondashuv asoslari, o'qituvchilarda ingliz tili faniga bo'lgan motivasiyani kuchaytirish; kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan dasturni yaratish; usulli vositalardan foydalanish; pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish tamoyillariga asoslanish kabi ishlab chiqildi.